

# ЖУРНАЛ гепато-гастроэнтерологических исследований



№3 (Том 4)

2023

# ЖУРНАЛ ГЕПАТО-ГАСТРОЭНТЕРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 4, НОМЕР 3

JOURNAL OF HEPATO-GASTROENTEROLOGY RESEARCH  
VOLUME 4, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2023



ISSN 2181-1008 (Online)

Научно-практический журнал  
Издается с 2020 года  
Выходит 1 раз в квартал

**Учредитель**

Самаркандский государственный  
медицинский университет,  
tadqiqot.uz

**Главный редактор:**

Н.М. Шавази д.м.н., профессор.

**Заместитель главного редактора:**

М.Р. Рустамов д.м.н., профессор.

**Ответственный секретарь**

Л.М. Гарифулина к.м.н., доцент

**Редакционная коллегия:**

Д.И. Ахмедова, д.м.н., проф;  
А.С. Бабажанов, к.м.н., доц;  
Ш.Х. Зиядуллаев, д.м.н., доц;  
Ф.И. Иноятова, д.м.н., проф;  
М.Т. Рустамова, д.м.н., проф;  
Н.А. Ярмухамедова, к.м.н., доц.

**Редакционный совет:**

Р.Б. Абдуллаев (Ургенч)  
М.Дж. Ахмедова (Ташкент)  
А.Н. Арипов (Ташкент)  
М.Ш. Ахоррова (Самарканд)  
Н.В. Болотова (Саратов)  
Н.Н. Володин (Москва)  
С.С. Давлатов (Бухара)  
А.С. Калмыкова (Ставрополь)  
А.Т. Комилова (Ташкент)  
М.В. Лим (Самарканд)  
М.М. Матлюбов (Самарканд)  
Э.И. Мусабаев (Ташкент)  
А.Г. Румянцев (Москва)  
Н.А. Тураева (Самарканд)  
Ф.Г. Ульмасов (Самарканд)  
А. Фейзиоглу (Стамбул)  
Ш.М. Уралов (Самарканд)  
А.М. Шамсиев (Самарканд)  
У.А. Шербеков (Самарканд)

Журнал зарегистрирован в Узбекском агентстве по печати и информации

Адрес редакции: 140100, Узбекистан, г. Самарканд, ул. А. Темура 18.

Тел.: +998662333034, +998915497971

E-mail: [hepato\\_gastroenterology@mail.ru](mailto:hepato_gastroenterology@mail.ru).

## СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Атаева Ф.Н., Туразода М. У.</b> УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ТЕРАПИИ У ДЕВОЧЕК С ЮВЕНИЛЬНЫМ КРОВОТЕЧЕНИЕМ ПРИ ЭНДОМЕТРИОЗЕ.....	5
<b>2. Garifulina L.M., Kholmuradova Z. E. ,Kudratova G. N.</b> FEATURES OF IMPLEMENTATION OF CARDIOVASCULAR SYSTEM PATHOLOGY IN CHILDREN WITH OBESITY, IMPROVEMENT OF PREVENTION AND TREATMENT.....	8
<b>3. Гарифуллина Л.М., Тураева Д.Х., Аслиддинов Ш. Б.</b> СЕМИЗЛИГИ БҮЛГАН БОЛАЛАРДА ГЕПАТОБИЛИАР ПАТОЛОГИЯ.....	11
<b>4. Ganiev A.G., Sanakulov A.B.</b> ANALYSIS OF THE QUALITY OF LIFE OF CHILDREN WITH A PREDISPOSITION TO ALLERGIC DISEASES..	15
<b>5. Ganiev A.G., Sanakulov A.B.</b> INDICATORS OF CIRCULATORY HEART RHYTHM IN SCHOOLCHILDREN WITH NEUROREGULATORY CARDIAC DYSTONIA.....	19
<b>6. Isanova Sh.T., Niyozov Sh. T., Mukhtarova M. A., Shukurov Xodixon Baxtiyor o'g'li.</b> PATHOGENETIC MECHANISM OF PAIN SYNDROME IN NEWBORNS.....	23
<b>7. Ishkabulova G.Dj., Raxmonkulov Sh.I.</b> SURUNKALI IKKILAMCHI PIELONEFRITNI DAVOLASH XUSUSIYATLARI.....	26
<b>8. Каримжанов И.А., Мадаминова М.Ш., Умаров Д.А.</b> РОЛЬ ИНТЕРЛЕЙКИНА ИЛ-17А ПРИ ЮВЕНИЛЬНОМ ИДИОПАТИЧЕСКОМ АРТРИТЕ.....	30
<b>9. Ниязов Ш.Т., Эргашев С. С., Исanova Ш.Т., Мухтарова А. А.</b> ОПТИКО-КОГЕРЕНТНАЯ ДИАГНОСТИКА С ПЕРИНАТАЛЬНЫМИ ПАТОЛОГИЯМИ У ДЕТЕЙ.....	34
<b>10. Rasulov A. S.</b> BIOKIMYOVIY KO'RSATKICHLARNI O'RGANISH BOLALARDA RAXITNI DAVOLASHDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISH YO'LIDIR.....	38
<b>11. Sirojiddinova H. N., Usmonova M. F.</b> YOSH BOLALARDA MEKONIAL ASPIRASYON SINDROMINING KLINIK XARAKTERistikASI.....	42
<b>12. Умаркулов З. З., Хамидов О.А., Давлатов С. С., Усмонов А.У.</b> РОЛЬ ДИАПЕВТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ХИРУРГИЧЕСКОМ ЛЕЧЕНИИ КИСТОЗНЫХ ОБРАЗОВАНИЙ ПЕЧЕНИ.....	46
<b>13. Умаркулов З.З., Хамидов О.А., Давлатов С. С., Усмонов А. У.</b> РОЛЬ ДИАПЕВТИЧЕСКИХ МЕТОДОВ В ДИАГНОСТИКИ И РЕЗУЛЬТАТОВ ХИРУРГИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ БОЛЬНЫХ ПАРАЗИТАРНЫМИ И НЕПАРАЗИТАРНЫМИ КИСТАМИ ПЕЧЕНИ.....	51
<b>14. Usmanova M.F., Sirojiddinova X. N.</b> YANGI TUG'ILGAN CHAQALOQLarda MOSLASHUV JARAYONINING AHAMIYATI.....	56
<b>15. Xusainova Sh.K., Zakirova B.I., Makhmujanova S. R.</b> THE PREVALENCE OF RECURRENCE OF OBSTRUCTIVE BRONCHITIS IN CHILDREN.....	59
<b>16. Шавази Н.М., Ибрагимова М. Ф., Шавкатова З. Ш.</b> СОСТОЯНИЕ ЦИТОКИНОВОГО ПРОФИЛЯ У ЧАСТО БОЛЕЮЩИХ ДЕТЕЙ ПРИ ОБСТРУКТИВНОМ БРОНХИТЕ.....	63
<b>17. Шеркулов К.У., Ахророва Л.Б., Усмонова Н. У.</b> СОЧЕТАННАЯ НЕОПУХОЛЕВАЯ ПАТОЛОГИЯ ПРЯМОЙ КИШКИ И АНАЛЬНОГО КАНАЛА.....	67
<b>18. Lim M.V., Irshodzoda A. D., Xatamova K. V.</b> THE ROLE OF MICROCLIMATE IN CHILDREN WITH RECURRENT OBSTRUCTIVE BRONCHITIS.....	73
<b>19. Лим М. В., Джираева М.С., Абдурахимова А.Ф.</b> ЭФФЕКТИВНОСТЬ НЕБУЛАЙЗЕРНОЙ ТЕРАПИИ ГИАЛУРОНОВОЙ КИСЛОТОЙ У ДЕТЕЙ С БРОНХООБСТРУКТИВНЫМ СИНДРОМОМ.....	77

# JOURNAL OF HEPATO-GASTROENTEROLOGY RESEARCH

## ЖУРНАЛ ГЕПАТО-ГАСТРОЭНТЕРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Usmanova Munira Fayzulayevna

1-son pediatriya va neonatologiya kafedrasi assistenti  
Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Sirojiddinova Xironom Nuriddinovna

1-son pediatriya va neonatologiya kafedrasi assistenti PhD  
Samarqand Davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston**YANGI TUG'ILGAN CHAQALOQLarda MOSLASHUV JARAYONINING AHAMIYATI**

**For citation:** Usmanova M. F., Sirojiddinova Kh. N./ In newborn infants importance of adjustment process. Journal of hepato-gastroenterology research. 2023. vol. 4, issue 3. pp.56-58


<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10511112>
**ANNOTASIYA**

Maqlada yangi tug'ilgan chaqaloqlarda gipotermiya holatlarini aniqlash va erta neonatal davrda issiqlik yo'qotishning asosiy bosqichini shuningdek, gipotermiya rivojlanishiga olib keladigan perinatal parvarish buzilishlarini aniqlash uchun termometriya va issiqlik zanjirining barcha bosqichlarini muvofiqligini nazorat qilish ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** yangi tg'ilgan chaqaloq, gipotermiya, issiqlik zanjiri.

Усманова Мунира Файзулаевна

Ассистент кафедры педиатрии №1 и неонатологии  
Самаркандский государственный медицинский университет

Сироджиддинова Хиромон Нуриддиновна

PhD, и/о доцента кафедры педиатрии №1 и неонатологии  
Самаркандский государственный медицинский университет**ВАЖНОСТЬ ПРОЦЕССА РЕГУЛИРОВКИ У НОВОРОЖДЕННЫХ****АННОТАЦИЯ**

В статье приведены данные о контролльном наблюдение всех стадий термометрии и теплового контура для выявления случаев переохлаждения у новорожденных и выявления основной стадии теплопотери в раннем неонатальном периоде, а также нарушений перинатального ухода, приводящих к развитию переохлаждения.

**Ключевые слова:** новорожденный, гипотермия, тепловая цепочка.

Usmanova Munira Faizulaevna

Assistant of the Department of Pediatrics №1 and Neonatology  
Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Sirojiddinova Xironom Nuriddinovna

Assistant of the Department of Pediatrics №1 and Neonatology PhD  
Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan**IN NEWBORN INFANTS IMPORTANCE OF ADJUSTMENT PROCESS****ANNOTATION**

The article shows the identification of cases of hypothermia in newborns and the control of compliance of all stages of thermometry and heat chain in order to determine the main stage of heat loss in the early neonatal period, as well as perinatal care disorders that lead to the development of hypothermia.

**Key words:** new born, hypothermia, heat chain.

Erta neonatal davrda yangi tug'ilgan chaqaloqlarning gipotermiyasi moslashish jarayoniga va shunga mos ravishda o'limga ko'rsatkichlariga hamda perinatal kasallanishga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Shuningdek bu holat har xil qon ketishlar respirator distress sindromi yarali nekrotik enterokolit DVS-sindromi va boshqa patologik holatlarning etiopatogenetik bo'g'ini hisoblanadi. Dunyoning turli mintaqalarida yangi tug'ilgan chaqaloqlarda gipotermiya va uning oqibatlari bir necha sabablarga ko'ra nomalum:

1. Yangi tug'ilgan chaqaloqning issiqlik rejimiga rioxaya qilish muhimligini yetarli darajada tushunmaslik.
2. Gipotermiya oqibatlarini yetarli baholamaslik.
3. Tana haroratini noto'g'ri o'lchash.

Bu boradagi tadqiqotlar onalik va bola salomatligini muhofaza qilish borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Biroq neonatal kasallanishga va o'limga darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Bu asosan perinatal davrda yangi tug'ilgan chaqaloqlarda birlamchi yordamning

yomonligi va birinchi navbatda yangi tug'ilgan chaqaloqlarda gipotermiyaning oldini olishda e'tibor bermaslik bilan bog'liq [4,5]. Ushbu va boshqa perinatal parvarishning muammolarini hal qilish uchun hozirgi vaqtida akusherlik muassasalarining ishlash tamoyillarini JSST tomonidan tavsya qilingan zamonaviy texnologiyalarga muvofiqlashtirilmoqda [7,9,15].

Unga ko'ra neonatal gipotermiyaning oldini olish issiqlik zanjiriga ryoja qilishni talab qiladi [4,6,11].

Issiqlik zanjirining eng tez tez buziladigan bosqichlarini belgilash gipotermiya holatlarni aniqlash va o'rganish yordamni optimallashtirish va kasalliklarning oldini olish perinatal davrda o'limni kamaytirishni ta'minlash uchun zarurdir. Tug'ilgandan keyin barcha bolalarda rektumdagagi haroratini pasayishi kuzatiladi.

Erta tug'ilgan chaqaloqlarda asfiksiya bilan og'igan, miyada qon ketish bilan asoratlangan shuningdek, patologik atsidoz ayniqsa nafas olish bilan bog'liq kasallangan chaqaloqlarda tana harorating pasayishi yuqori darajada bo'lishi mumkin. Asfiksiya bilan tug'ilgan chaqaloqda xona harorati 25 °C bo'lgan ochiq stolga qo'yilganda 5 daqiqadan keyin ekstremitalarda terining harorati 4 °C ga kamayadi. Va 30 daqiqadan keyin ichki organlarning harorati 2 °C ga kamayadi [1,2,3].

Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki neonatal gipotermiyani yengishning eng samarali usuli bu ona va yangi tug'ilgan chaqaloq o'rtaqsidagi teriga - teri kontaktidir. Va bu chaqaloq tug'ilgandan ko'p o'tmay amalga oshiriladi. Ma'lum bo'lischicha ona chaqaloq bilan Teriga teri kontaktida bo'lsa ko'kraviga yotqizilgan va ustidan oddiy adyol bilan qoplangan bo'lsa ko'krak harorati o'zgarishi amplitudasining ortishi kuzatiladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning javob reaksiyasi tana haroratining tez ko'tarilishi uning eng distal qismlarida (xususan oyoq) keskin ko'tarilishi bilan namoyon bo'ladi. Oyoq haroratining tez ko'tarilishi distal bo'limga qon oqimining ko'payishi tufayli yuzaga keladi. Bu markaziy vazodilatatsiyaning natijasi hisoblanadi [8,12,14]. Moslashuvchan xarakterga ega bo'lgan va tug'ilish stressi deb ataladigan fiziologik hodisa simpatik asab tizimining faoliyatini oshirishga asoslanadi. Xususan tanada aylanib yuruvchi katekolaminlarning (adrenalin va morfogen) g'ayrioddigi yuqori darajasi bilan namoyon bo'ladi. Ko'proq darajada noadrenalin yuqorida aytib o'tilganidek va periferik vazokonstruksiya bilan birga keladi. Ona bilan yetarli uzoq muddatli Teriga Teri kontakti bilan chaqaloq somatosensor nerv tolalarining ma'lum turlarini faollashtiradi. Bu o'z navbatida parasimpatik asab tiziming markazlarini xususan vagus nervining sezuvchi yadrosini faollandishiga olib keladi. Nucleus solitarius zonasasi. Miya asosi darajasigacha yetib boradi va natijada bu markaziy simpatolitik ta'siri zanjirini qarabasini. Shuningdek, bu holat periferik qon tomirlarning kengayishiga, terida qon oqimini ko'payishiga va teri haroratining ko'tarilishi olib keladi. Shunday qilib teriga - teri kontakti nafaqat yangi tug'ilgan chaqaloqning haroratga moslashishi uchun maqbul sharti hisoblanadi [10,11].

Balki bir muncha vaqt saqlanib qolgan yangi tug'ilgan chaqaloqning tug'ilish stressi ning salbiy oqibatlarini bartaraf etishning tabiiynofarmakologik usulidir. Uning moslashuvchan ta'siri tugagandan so'ng jiddiy gipotermiya qo'lтиq ostidagi tana harorati 36°C dan past bo'lganda tashxis qilinadi. Bu markaziy asab tizimiining turli darajadagi depressiyasidir. Zaif yig'lash, taxikardiya, o'zgaruvchan bradikardiya, arterial gipotermiya, shish, skleroma, taxi yoki bradipnoe, apnoe, gipoventiliyatsiya, o'pka shishi yoki o'pkadan qon ketish, poli yoki keyinchalik oligouriya mushaklarning giper yoki gipotenziyasi, sekin so'rish yoki umuman so'rish refleksi yo'qligi regurgitatsiyasi, qon ketishining ko'payishi, atsidoz, gipoglikemiya holatlarida ifodalananadi [2,13].

**Tadqiqot maqsadi.** Ushbu tadqiqot maqsadi issiqlik zanjiri konsepsiyasiga ryoja qilishda gipotermiyani oldini olish va yangi tug'ilgan chaqaloqlarning moslashish xususiyatlarni aniqlashdir.

**Material va usullar.** Tadqiqot JSST ning perinatal parvarish tamoyillari amalda to'liq tatbiq etilgan va issiqlik zanjiri konsepsiyasini amalga oshirilgan (1 guruh) va ushbu tamoyillari cheklangan darajada qo'llaniladigan 1 darajasi akusherlik muassasalari ba'zasida o'tkazildi. (2guruh). Biz 34-39 haftalik homiladorlik davrda 90 ta yangi tug'ilgan chaqaloqni tekshirdik.

1 guruhga 48 nafar chaqaloq kiritilgan bo'lib ulardan 46 nafari (95,83%) to'liq muddatli. 2 nafari (4,16%) erta tug'ilgan. Prenatal

davrning xususiyatlari 37 (77%) chaqaloqda qayd etilgan masalan asfiksiya 22 ta (45,8%). Kindik tizimchasidagi qattiq bog'lanish 8 ta (16,7%).

2 guruhga 42 ta yangi tug'ilgan chaqaloqlar kiritildi. Ulardan 38 tasi (90,5%) to'liq muddatli 4 tasi 9,5% erta tug'ilgan. Ushbu guruhning 30 nafari (71,4%) perinatal davrda anomaliyalar kuzatilgan. 21 tasida (50%), asfiksiya 2 tasida (4,8%), kindik tizimchasidagi qattiq bog'lanish, yumshoq to'qimalarning tug'ilishdagi shikastlanishi kuzatildi.

Ko'rikdan o'tgan bolalar deyarli sog'lom reanimatsiya va alohida parvarish talab etmagan. Ish jarayonida tekshirilgan bolalarning I va II guruhlarida isitish zanjiridagi har bir bo'g'inning ish faoliyati nazorat qilindi. Termometriya ko'rsatkichlarining monitoringi hayotining dastlabki 24 soatida amalga oshirildi. Yangi tug'ilgandan keyin 30 minut o'tgach, tug'ruxonadan bo'limga o'tishidan oldin, bo'limga kelganda, hayotining 2 va 3- kunlarida har 4 soatda kuzatildi. Termometriya past haroratlarini qayd etish uchun (JSST xalqaro protokoli talablariga muvofiq) qayd etilgan haroratning pastki chegarasi 32°C bo'lgan elektron termometr bilan amalga oshirildi.

**Natijalar va muhokamalar:** Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda gipotermiya holatlarni aniqlash va erta neonatal davrda issiqlik yo'qotishning asosiy bosqichini shuningdek, gipotermiya rivojlanishiga olib keladigan perinatal parvarish buzilishlarini aniqlash uchun biz termometriya va issiqlik zanjirining barcha bosqichlarini muvofiqligini nazorat qildik.

I guruh bolalarida biz gipotermiya holatini boshdan kechirgan 9 ta yangi tug'ilgan chaqaloqlarni qayd etdi. Bu 18.75% ni tashkil etdi. II guruhda 18 ta yangi tug'ilgan chaqaloqlar gipotermiyadan aziyat chekdi. Bu 42.8 % ni tashkil qildi. Biz kuzatgan bolalarda gipotermiya 2010 yilgi JSST tasnifiga ko'ra sovuq stress holati (36°C gacha) o'rta gipotermiya (35,9-32°C) va og'ir gipotermiya (32°C dan past) sifatida ajratilgan. Monitoring natijalari 1-rasmidan ko'rsatilgan. 1-rasm. Gipotermiya holatlarini darajalar bo'yicha taqsimlash jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, II guruhdagi sovuq stressli bolalar soni I guruhga qaraganda biroz ko'proq. II guruhdagi o'rta og'ir gipotermiya bilan og'igan bolalar soni I guruhdagi og'igan bolalar sonidan 3,5 baravar ko'p. Guruhlardan hech birida og'ir gipotermiya holatlari kuzatilmagan. Shuni ta'kidlash kerakki, sovuq stressni boshdan kechirgan I guruhning 5 ta (10,42%) va II guruhning 6 ta (14,2%) yangi tug'ilgan chaqaloqlar to'liq muddatli edi. O'rta og'ir gipotermiyaga uchragan bolalardan I guruhda 2 ta (4,16%) to'liq muddatli va 2 ta (4,16%) erta tug'ilgan, II guruhda esa 8 ta (19%) to'liq muddatli va 4 ta (9,5%) muddatidan oldin tug'ilganlardir.

Ushbu ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, hatto sog'lom to'liq tug'ilgan chaqaloqlar ham noqulay haroratli muhitga tushib ularning termoregulyatsiyasi erta tug'ilganlarga qaraganda anche rivojlangan bo'lishiha qaramay issiqlikni osongina yo'qotadilar. Shuni ta'kidlash kerakki, har ikkala guruhdagi barcha erta tug'ilgan chaqaloqlar o'rtacha gipotermiyaga duchor bo'lgan. Biz o'rganayotgan guruhdagi issiqlik zanjirining 10 ta ketma ket bo'g'inlarining har birining ishlashini tahlil qildik. O'rganilayotgan guruhlarda issiqlik zanjirining ketma-ket bo'g'inlarining amalga oshirish tahlili:

1. Tibbiy kadrlar tayyorlash.
2. Issiqlik tug'ruq xonasini tayyorlash.
3. Bola uchun issiqlik yuzani tayyorlash.
4. Toza tagliklarni tayyorlash.
5. Bolani darhol quritish.
6. Bolani darhol onani issiqlik yuzasiga quyish.
7. Ko'krak qafasiga biriktirish.
8. Ona va bolani kiyintirish.
9. Ona va bolani issiqlik adyol bilan o'rash.
10. Issiqlik transport.

**Kulosha.** Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, I guruhda issiqlik zanjirining bitta bo'g'ini issiqlik transport zarar ko'rgan. Bundan kelib chiqadi, sovuq qotish 35% hollarda kuzatilgan. Qolgan bo'g'inlar to'liq kuzatilgan. Ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, II guruhda har doim faqat bittasi kuzatiladi. Issiqlik zanjirining 5 - bo'g'ini qolganlari u yoki bu chastotada buziladi. Ayniqsa qo'pol buzilishlar 1.2.6.7.9.10 bosqichlarida. Shu sababli, ushbu guruhdagi bolalarga perinatal yordam ko'rsatishda ushbu konsepsiyanı amalga oshirish sifati haqidagi

gapirishning hojati yo'q. I guruhda kuzatilgan 18.75% gipotermiya holatlari issiqlik zanjirining 10 bo'g'inining buzilishi natijasida qayd etilgan. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning tana harorati pasayishi bo'limga kelgandan so'ng darhol qayd etildi. (havo harorati pastligi va noqulay transport tufayli ) II guruhdagi issiqlik zanjirining bo'g'inxilarida buzilishlar tufayli tug'ruq xonasida 8 ta (19%) yangi tug'ilgan chaqaloqda va bo'limga tug'ilgandan keyin 10 ta (23,8%) chaqaloqlarda gipotermik holat yuzaga kelgan. Gipotermiyaga uchragan II guruhning har bir bolasida issiqlik zanjirining bir nechta bo'g'inxilar buzilgan.

Shunday qilib, tadqiqotlar natijalari shuni kursatdiki, issiqlik zanjiri tamoyillari buzilishi hatto sog'lom to'liq tug'ilgan chaqaloqlarda ham kompensatsion adaptiv qobiliyatlarini sezilarli darajada pasaytiradi. Moslashuv jarayonlarini yomonlashuviga olib kelgan. MNS, yurak -qon tomir, nafas olish tizimi, buyraklar va gipotermiya darajasi va davomiyligiga bog'liq. Issiqlik zanjiri konsepsiyasiga qat'iy rioya qilish perinatal davrning parvarishlash sifati va natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

### Список литературы/ Iqtiboslar / References

1. Рюмина И.И., Мартынова Е.Н. Гипотермия новорожденного // Вопросы гинекологии, акушерства и перинатологии. - 2003. №№(2):3. - С. 63-67.
2. Сирожиддинова Х.Н. Роль матерей в развитии перинатальной патологии и в формировании группы часто болеющих детей. Наука и мир Международный научный журнал 2015. - № 1 (17), Т 2. - С. 104-106.
3. Сирожиддинова Х.Н., Абдуллева М.Н. Клиническая значимость иммуномодулирующей терапии заболеваний органов дыхания у часто болеющих детей. MEDICUS Международный медицинский научный журнал, Волгоград, 2016, № 1 (7) С. 90-92.
4. Сирожиддинова Х.Н., Усманова М.Ф. Материнский анамнез как фактор формирования группы часто болеющих детей. Журнал кардиореспираторных исследований том 3, №1. 2022. С 61-64.
5. Horn A., Thompson C., Woods D., Nel A, Bekker A., Rhoda N., Pieper C. Induced hypothermia for infants with hypoxic ischaemic encephalopathy using a servo controlled fan: an exploratory pilot study // Pediatrics. - 200. -№123. - P 1090-1098.
6. Fedorovna I. M., Mamedovich S. N. Improving Treatment in Children with Community-Acquired Pneumonia with Atypical Etiology // Telematique. – 2022. – С. 4644–4648-4644-4648.
7. Kumar V., Mohanty S., Kumar A., Misra R.P., Santosham M., Awasthi S., et al. Effect of the community-based behaviour change management on neonatal mortality in Shivgarh, Uttar Pradesh, India: a cluster randomized controlled trial // The Lancet. - 2008. №372. -P. 1151-1162.
8. Fedorovna, I. M., & Shodiyorovna, G. D. (2023). IMPROVED DIAGNOSIS AND TREATMENT OF ATYPICAL PNEUMONIA IN CHILDREN. Thematics Journal of Applied Sciences, 7(1).
9. Lawn J., Cousens S., Bhutta Z., Darmstadt, Martines J., Paul V. Why are 4 million newborn babies dying each year? // The Lancet. - 2004. №.364: -P.399-401.
10. Manandhar DS, Osrin D, Shrestha BP, Mesko N, Morrison J, Tumbahangphe KM, et al. Effect of a participatory intervention with women's groups on birth outcomes in Nepal: cluster-randomised controlled trial // The Lancet - 2004. №364. - P. 970-79.
11. McCall E.M., Alderdice F., Halliday H.L., Jenkins J.G., Vohra S. Interventions to prevent hypothermia at birth in preterm and/or low birthweight infants // Cochrane Database of Systematic Reviews. - 2010. -Issue 3, Art. No.: CD004210; DOI: 10.1002/14651858.CD004210.pub4.
12. Newton, Watkinson M. Preventing hypothermia at birth in preterm babies: at a cost of overheating some? // Archives of Disease in Childhood Fetal and Neonatal Edition. - 2003. №88. -P256-256.
13. Thermal Protection of the Newborn: a practical quite, World Health organization // Geneva. - 1997.
14. Tunell R. Prevention of neonatal cold injury in preterm infants // Acta Pediatr. - 2004. № 93(3) -P. 308-10.
15. Shavazi, N., & Ibragimova, M. (2023). Применение препарата полиоксидоний при лечении обструктивного бронхита у детей. International Journal of Scientific Pediatrics, (1), 26-28.
16. Sarkar S., Barks J.D., Donn S.M. Should amplitude integrated electroencephalography be used to identify infants suitable for hypothermic neuroprotection? // Journal of Perinatology. - 2008. №28. -P 117-122.
17. Sirojiddinova X.N., Ortikboyeva N.T., Aminova N.A., Akmaljanova A. A. Peculiarities of neurosonography in hypoxic-ischemic encephalopathy in newborns with intrauterine infection // Eurasian journal of academic research. Volume 1 Issue 9, December 2021 ISSN 2181-2020. On page 261-265.
18. Sirojiddinova X.N., Abdulleva M.N. Formation of circulating immune complexes (CIC) and immunoglobulins in intrauterine infection (IUI) // European science review, Austria, Vienna, 2016.- № 9-10. - P.134-135.

# ЖУРНАЛ ГЕПАТО-ГАСТРОЭНТЕРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

## ТОМ 4, НОМЕР 3

JOURNAL OF HEPATO-GASTROENTEROLOGY RESEARCH  
VOLUME 4, ISSUE 3

**Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz**

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000